



№7(3)
2026

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal

MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 140 sahifa,
25-iyul, 2026-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Woosyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
Abdullayeva N. Sh. – Pedagogika fanlari doktori (DSc), professor
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalari tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (PhD)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Vaxobov Anvar Abdusattor o'g'li – Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Woogyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Abdullayeva N. Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the DM Editorial Office of the newspapers “Yangi O'zbekiston” and “Pravda Vostoka”, Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Doctor of Philosophy (PhD) in Philology, Associate Professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

Vakhobov Anvar Abdusattor oğlu – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences, Associate Professor

“Maktabgacha va maktab ta'limi” jurnali O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo'yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo'yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta'limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo'yicha
ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Imkoniyati cheklangan talabalarda jismoniy sifatlarni sport mashg'ulotlari yordamida rivojlantirishning afzalliklari	8
Davronov Rustam Iloxovich	
Использование фонетических игр и современных технологий в обучении русскому языку в общеобразовательных школах Узбекистана	15
Абумалик Муталлиевич Дедаханов	
Maktablarda chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni isloh qilish muammo va yechimlar	20
Qudratov O'ktam G'ofurovich	
The Role of Motivation in Learning English	25
Kamoldinova Mushtariybonu Azizbek qizi	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'lim muhitini boshqarishning ijtimoiy-pedagogik asoslari	30
Axrarova Gulrux Gulamkadirovna	
Bo'lajak logopedlarda metakognitiv-dagnostik kompetentlikni rivojlantirishning xorijiy va milliy tajribasi	37
Suvankulova Shaxnoza Karimkulovna	
Ingliz tili darslarida individual va pragmatik yondashuvni amalga oshirish texnologiyalari	43
Yuldasheva Dilnoza Bobojonovna	
Talabalarining texnologik fikrlash kompetensiyalarini rivojlantirishning tarkibiy komponentlari	48
Kushbakova Barno Batirkulovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida inklyuziv ta'limni joriy etishda ijtimoiy hamkorlik va jamoatchilik fikrini shakllantirish	54
Arslanova Madinaxon Mansurovna	
O'quvchi-yoshlarga axloqiy ta'lim-tarbiya berishda qoraqalpoq dostonlarining ahamiyati	59
Esemuratova Turganbike Aytmuratovna	
Talaba markazli yondashuv asosida ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlardan foydalanish samaradorligi	63
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida 5-6 yoshdagi bolalarni kasbga yo'naltirish bo'yicha metodik xizmatni takomillashtirish	67
Rizayeva Munisxon Maxkamovna	
Generativ sun'iy intellekt vositalarining ta'lim jarayonidagi pedagogik imkoniyatlari	71
Shodiyev Azizbek Olim o'g'li	
Shaxs kamolotida psixologik salomatlikning ahamiyati va asosiy ko'rsatkichlari	76
Xolova Yulduz Erkinovna	
Zamonaviy ta'lim paradigmasida fizika fanini o'qitish: virtual va to'ldirilgan borliq hamda sun'iy intellekt texnologiyalarining integrativ metodikasi	83
Zuhriddinov Farrux Faxriddin o'g'li	
Event ta'lim texnologiyasi vositasida talabalarining o'qish samaradorligini oshirish	87
Latipova Ma'rifat Salohiddin qizi, Bo'tayeva Saodat Xudoyor qizi	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarining intellektual faolligini rivojlantirishga ta'sir etuvchi individual-psixologik omillar	90
Djurakulova Munira Suyunovna	
Ingliz tilini o'qitishda interaktiv metodlarni takomillashtirish modeli hamda ularning ta'lim samaradorligiga ta'siri	97
Narzullayeva Firuza Olimovna	
Народное творчество как великое сокровище интеллектуального воспитания	102
Матмуратова Гулистан Камалатдиновна	
Raqamli intellekt: o'quvchilarda mediasavodxonlik kompetensiyasini rivojlantirish – davr talabi	108
Nishonova Muattarxon Alisherovna, Toirova Nafisa Muzaffar qizi	



Umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari.....	111
Toshmamatova Munisa Toshmamatovna	
Xorazm viloyatida ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari (tumanlar kesimida)	115
Xo'jyozova Dildora Shonazar qizi, Dusanova Sharofat Baltaboyevna	
Maktabgacha yoshdagi bolalarda kreativ yondashuv asosida innovatsion tafakkur ko'nikmalarini rivojlantirishning zamonaviy yo'nalishlari.....	121
Kadirova Dildora Najadbekovna	
The Integration of Artificial Intelligence in English Language Teaching: Opportunities and Challenges	125
Moxinur Yusupova	
Pragmatik-tizimli portfolio (PTP) texnologiyasi: talabalar reflektiv tafakkurini faoliyat dalillari asosida rivojlantirish.....	131
Abdullayeva Ziroatxon Qurbonovna	
Sog'lig'ida cheklovlari mavjud bolalar jismoniy va psixologik holatini takomillashtirishda yengil atletika mashg'ulotlarining ahamiyati	136
Hikmatova Nigoraxon Hasanboy qizi	



UMUMTA'LIM FANLARIDAN DARS SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA AXBOROT TEKNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING ILMIY-METODIK ASOSLARI



Toshmamatova Munisa Toshmamatovna

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Maqolada umumta'lim fanlarini o'qitish jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning ilmiy-metodik asoslari tahlil qilingan. Zamonaviy ta'lim tizimining raqamlashtirilishi sharoitida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan samarali foydalanishning pedagogik imkoniyatlari, o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirishdagi ahamiyati hamda dars samaradorligini oshirishdagi o'rni yoritilgan. Tadqiqotda kompetensiyaviy yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim va fanlararo integratsiya asosida axborot texnologiyalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, elektron ta'lim resurslari, multimedia vositalari, virtual laboratoriyalar, masofaviy ta'lim platformalari va sun'iy intellekt elementlarini o'quv jarayoniga joriy etishning ilmiy-metodik asoslari ochib berilgan. Muallif tomonidan umumta'lim fanlarida axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirishning pedagogik shartlari hamda metodik modeli tavsiya etilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiyalari, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, umumta'lim maktabi, dars samaradorligi, raqamli ta'lim, pedagogik texnologiyalar, elektron ta'lim resurslari, kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya, sun'iy intellekt.

Abstract: This article analyzes the scientific and methodological foundations for improving the use of information technologies in teaching general education subjects. In the context of the digitalization of the modern education system, it highlights the pedagogical potential of the effective use of information and communication technologies, their importance in developing students' digital competencies, and their role in enhancing lesson effectiveness. The study examines the didactic opportunities of using information technologies based on the competency-based approach, learner-centered education, and interdisciplinary integration. It also reveals the scientific and methodological foundations for integrating electronic educational resources, multimedia tools, virtual laboratories, distance learning platforms, and artificial intelligence elements into the educational process. The author proposes pedagogical conditions and a methodological model for improving the use of information technologies in teaching general education subjects.

Key words: information technologies, information and communication technologies, general education school, lesson effectiveness, digital education, pedagogical technologies, electronic educational resources, competency-based approach, interdisciplinary integration, artificial intelligence.

Аннотация: В статье проанализированы научно-методические основы совершенствования использования информационных технологий в процессе преподавания общеобразовательных предметов. В условиях цифровизации современной системы образования раскрываются педагогические возможности эффективного использования информационно-коммуникационных технологий, их значение в развитии цифровых компетенций учащихся, а также роль в повышении эффективности учебных занятий. В исследовании анализируются дидактические возможности использования информационных технологий на основе компетентного подхода, личностно-ориентированного обучения и межпредметной интеграции. Кроме того, раскрываются научно-методические основы внедрения в образовательный процесс электронных образовательных ресурсов, мультимедийных средств, виртуальных лабораторий, платформ дистанционного обучения и элементов искусственного интеллекта. Автором предложены педагогические условия и методическая модель совершенствования использования информационных технологий при преподавании общеобразовательных предметов.

Ключевые слова: информационные технологии, информационно-коммуникационные технологии, общеобразовательная школа, эффективность урока, цифровое образование, педагогические технологии, электронные образовательные ресурсы, компетентный подход, межпредметная интеграция, искусственный интеллект.

KIRISH

Bugungi kunda jahon ta'lim tizimida kechayotgan raqamli transformatsiya jarayonlari ta'lim mazmuni va metodikasini tubdan yangilashni taqozo etmoqda. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlaniishi natijasida ta'lim jarayonida innovatsion yondashuvlarni qo'llash, elektron ta'lim resurslaridan samarali foydalanish hamda raqamli ta'lim muhitini yaratish zamonaviy ta'lim siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Bugungi o'quvchi nafaqat nazariy bilimlarni egallashi, balki axborotni izlash, qayta ishlash, tahlil qilish, undan samarali foydalanish va yangi bilimlarni mustaqil o'zlashtirish kompetensiyalariga ham ega bo'lishi zarur. Shu sababli umumta'lim fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish ilmiy-pedagogik tadqiqotlarning muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanmoqda.

Mamlakatimizda ta'lim tizimini raqamlashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasi, umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari hamda ta'limni rivojlantirishga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim jarayoniga keng joriy etish, pedagoglarning raqamli kompetentligini oshirish hamda elektron ta'lim resurslarini yaratish ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Mazkur vazifalarni amalga oshirish esa umumta'lim maktablarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini takomillashtirishni talab etadi.

Zamonaviy pedagogik nazariyalarga ko'ra, axborot texnologiyalari faqat texnik vosita emas, balki o'quv jarayonining mazmuni, metodlari va shakllarini yangilovchi didaktik omildir. Multimedia taqdimotlari, elektron darsliklar, virtual laboratoriyalar, simulyatsion dasturlar, bulutli texnologiyalar va masofaviy ta'lim platformalari o'quvchilarning bilish faoliyatini faollashtirish, ularning mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish hamda individual ta'lim trayektoriyasini shakllantirish imkonini beradi. Shu bilan birga, sun'iy intellekt texnologiyalarining rivojlanishi ta'lim jarayonida adaptiv o'qitish, avtomatlashtirilgan baholash va individual tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyatlarini kengaytirmoqda.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Ta'lim jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish masalalari so'nggi yillarda mahalliy va xorijiy olimlar tomonidan keng tadqiq etilgan. Ushbu tadqiqotlarda AKTning ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning raqamli kompetensiyalarini rivojlantirish hamda o'qitish metodikasini takomillashtirishdagi o'rni turli nuqtai nazarlardan yoritilgan.

Xorijiy tadqiqotchilardan R. Mayer multimedia orqali o'qitish nazariyasini ishlab chiqib, matn, tasvir va audiovizual materiallarning uyg'un qo'llanilishi o'quvchilarning bilimlarni o'zlashtirish darajasini oshirishini ilmiy asoslab bergan. Uning fikricha, multimedia vositalaridan pedagogik maqsadga muvofiq foydalanish o'quvchilarning kognitiv faolligini kuchaytiradi va murakkab tushunchalarni o'zlashtirishni osonlashtiradi.

P. Mishra va M. Koehler tomonidan taklif etilgan TPACK (Technological Pedagogical Content Knowledge) modeli o'qituvchining texnologik, pedagogik va fan mazmuniga oid bilimlari uyg'unlashgandagina ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan samarali foydalanish mumkinligini asoslaydi. Mazkur model bugungi kunda dunyoning ko'plab davlatlarida pedagoglarni tayyorlash va ularning kasbiy kompetentligini baholashda metodologik asos sifatida qo'llanilmoqda.

A. Bates hamda T. Anderson o'z tadqiqotlarida raqamli ta'lim muhiti, masofaviy ta'lim va elektron ta'lim resurslarining didaktik imkoniyatlarini tahlil qilganlar. Ular ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quvchilarning mustaqil ta'lim faoliyatini rivojlantirish hamda uzluksiz ta'limni tashkil etishda raqamli platformalarning muhim ahamiyatga ega ekanligini ta'kidlaydilar.

Mahalliy olimlardan A. Abduqodirov ta'limni axborotlashtirishning ilmiy-nazariy asoslarini ishlab chiqib, axborot texnologiyalarining o'quv jarayonini tashkil etish va boshqarishdagi imkoniyatlarini yoritgan. Uning ilmiy ishlarida elektron ta'lim resurslarini yaratish, pedagogik dasturiy vositalardan foydalanish hamda o'qituvchilarning AKT kompetentligini rivojlantirish masalalariga alohida e'tibor qaratilgan.

R. Ishmuhamedov va M. Yo'ldoshev innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy etish metodikasini tadqiq etib, interfaol metodlarning o'quvchilarning mustaqil va ijodiy fikrlashini rivojlantirishdagi ahamiyatini asoslab berganlar. Ularning ishlari zamonaviy ta'lim texnologiyalarini amaliyotga tatbiq etishda muhim metodik manba hisoblanadi.

N. Saidahmedov pedagogik texnologiyalarni loyihalash, ta'lim jarayonini samarali tashkil etish hamda zamonaviy o'qitish metodlarini qo'llash masalalarini yoritgan. N. Muslimov esa kasbiy ta'lim tizimida pedagogik texnologiyalarni qo'llash, kompetensiyaviy yondashuv va innovatsion ta'lim metodlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar olib borgan.

Mazkur maqolaning o'ziga xosligi shundan iboratki, unda umumta'lim fanlaridan dars samaradorligini oshirishda axborot texnologiyalaridan foydalanish ilmiy-metodik tizim sifatida ko'rib chiqiladi. Muallif tomonidan



kompetensiyaviy yondashuv, fanlararo integratsiya, raqamli ta'lim resurslari va sun'iy intellekt vositalarini uyg'unlashtirishga asoslangan metodik model taklif etiladi. Shuningdek, axborot texnologiyalaridan foydalanishning pedagogik shartlari, didaktik tamoyillari hamda dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi metodik tavsiyalar tizimli ravishda asoslab berilgan. Mazkur jihatlar tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy ahamiyatini belgilaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Pedagogik tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi, avvalo, ularni metodik jihatdan to'g'ri tanlash va darsning didaktik maqsadlariga mos ravishda qo'llashga bog'liq. O'qituvchi axborot texnologiyalaridan foydalanishda o'quvchilarning yosh xususiyatlari, tayyorgarlik darajasi, fan mazmuni va darsning maqsadini hisobga olishi zarur. Aks holda, texnologiyalar ta'lim sifatini oshirish vositasi emas, balki oddiy texnik element sifatida qolib ketishi mumkin.

Umumta'lim fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanish fanlararo integratsiyani ta'minlash uchun ham keng imkoniyatlar yaratadi. Masalan, matematika fanida GeoGebra va Desmos kabi dasturlardan foydalanish, fizika darslarida virtual laboratoriyalarni qo'llash, biologiyada 3D modellar yordamida organizmlarning tuzilishini o'rganish, geografiyada GIS texnologiyalaridan foydalanish yoki tarix fanida virtual muzeylar va interaktiv xaritalar asosida darslarni tashkil etish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq anglashiga yordam beradi. Natijada bilimlar alohida fanlar kesimida emas, balki yaxlit tizim sifatida shakllanadi.

Shuningdek, axborot texnologiyalari ta'lim jarayonini differensiallashtirish va individuallashtirish imkonini beradi. Elektron platformalar yordamida o'quvchilarning bilim darajasi monitoring qilinadi, mustaqil topshiriqlar avtomatik baholanadi va har bir o'quvchiga uning tayyorgarlik darajasidan kelib chiqib individual topshiriqlar tavsiya etiladi. Bu esa kompetensiyaviy yondashuvning samarali amalga oshirilishini ta'minlaydi.

Mazkur tadqiqot umumiy o'rta ta'lim maktablarida axborot texnologiyalaridan foydalanishning ilmiy-metodik asoslarini aniqlash hamda dars samaradorligini oshirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlarni tahlil qilishga qaratildi. Tadqiqot davomida tizimli, kompetensiyaviy, faoliyatga yo'naltirilgan va integrativ yondashuvlar metodologik asos sifatida tanlandi. Tadqiqotning nazariy bazasini mahalliy va xorijiy olimlarning axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, raqamli pedagogika, elektron ta'lim hamda zamonaviy o'qitish metodikalariga oid ilmiy ishlari tashkil etdi.

Tadqiqot jarayonida ilmiy adabiyotlarni qiyosiy tahlil qilish, pedagogik kuzatish, umumlashtirish, model-lashtirish va tavsiyalar ishlab chiqish metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, umumta'lim maktablarida qo'llanilayotgan raqamli ta'lim platformalari, elektron ta'lim resurslari va interfaol metodlarning didaktik imkoniyatlari tahlil qilindi. Mazkur yondashuv axborot texnologiyalaridan foydalanish samaradorligini faqat texnik vositalar bilan emas, balki ularni pedagogik maqsadga muvofiq tashkil etish orqali baholash imkonini berdi.

Tadqiqotning metodik modeli o'qituvchi, o'quvchi va raqamli ta'lim muhiti o'rtasidagi o'zaro hamkorlikni asosiy omil sifatida belgilaydi. Ushbu modelda ta'lim maqsadi, o'quv mazmuni, o'qitish metodlari, baholash vositalari hamda zamonaviy axborot texnologiyalari yagona didaktik tizim sifatida qaraladi. Modelga ko'ra, o'qituvchi axborot texnologiyalarini tanlashda darsning maqsadi, mavzuning mazmuni, o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari hamda shakllantirilishi lozim bo'lgan kompetensiyalarni inobatga olishi zarur.

TAHLIL VA NATIJALAR

Ilmiy manbalar va ilg'or pedagogik tajribalar tahlili shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalaridan metodik jihatdan to'g'ri foydalanish dars samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Avvalo, dars jarayonida multimedia vositalari, animatsiyalar, videodarslar va virtual modellarni qo'llash o'quvchilarning diqqatini jalb etadi, murakkab nazariy tushunchalarni vizual tarzda tushunishga yordam beradi hamda o'quv materialining o'zlashtirilish darajasini oshiradi. Ayniqsa, tabiiy va aniq fanlarni o'qitishda virtual laboratoriyalar hamda simulyatsion dasturlar o'quvchilarda amaliy ko'nikmalarni shakllantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Elektron ta'lim platformalaridan foydalanish ta'lim jarayonining uzluksizligini ta'minlaydi. Google Classroom, Moodle, Microsoft Teams va boshqa platformalar yordamida o'quvchilar dars materiallarini istalgan vaqtda takrorlash, mustaqil topshiriqlarni bajarish, o'qituvchi bilan onlayn muloqot qilish hamda o'z bilimlarini mustaqil nazorat qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu esa ta'limning individuallashtirilishiga xizmat qiladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, axborot texnologiyalarini fanlararo integratsiya asosida qo'llash darslarning mazmunini yanada boyitadi. Masalan, matematika fanida elektron grafik dasturlar yordamida funksiyalarni tahlil qilish, geografiya fanida raqamli xaritalar va geografik axborot tizimlaridan foydalanish, biologiyada uch o'lchamli modellar orqali hujayra va organlarning tuzilishini o'rganish, tarix fanida esa virtual muzeylar va interaktiv xaritalardan foydalanish o'quvchilarning mavzuni chuqurroq o'zlashtirishiga xizmat qiladi. Natijada nazariy bilimlar amaliy faoliyat bilan uzviy bog'lanadi.



So'nggi yillarda sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'lim tizimiga kirib kelishi dars samaradorligini oshirish uchun yangi imkoniyatlarni yaratmoqda. Sun'iy intellekt asosidagi platformalar o'quvchilarning bilim darajasini avtomatik tahlil qilish, individual topshiriqlar tavsiya etish, baholash jarayonini optimallashtirish va ta'lim natijalarini prognozlash imkonini bermoqda. Shu bilan birga, ushbu texnologiyalardan foydalanishda axborot xavfsizligi, akademik halollik va shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish tamoyillariga qat'iy rioya etilishi lozim.

Shuningdek, tadqiqot davomida axborot texnologiyalaridan foydalanishda uchraydigan ayrim muammolar ham aniqlandi. Jumladan, ayrim umumta'lim maktablarida texnik jihozlarning yetarli emasligi, internet tezligining pastligi, elektron ta'lim resurslarining cheklanganligi va pedagoglarning raqamli kompetensiyalaridagi tafovutlar axborot texnologiyalaridan samarali foydalanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Mazkur muammolarni bartaraf etish uchun o'qituvchilarning malakasini muntazam oshirish, zamonaviy elektron resurslar yaratish va ta'lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, umumta'lim fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanishni takomillashtirish ta'lim sifatini oshirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Zamonaviy raqamli texnologiyalar o'quvchilarning bilish faolligini oshirish, mustaqil ta'lim olish ko'nikmalarini rivojlantirish, tanqidiy va ijodiy fikrlash kompetensiyalarini shakllantirish hamda fanlararo integratsiyani ta'minlashda katta didaktik imkoniyatlarga ega.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, axborot texnologiyalaridan foydalanishning samaradorligi, avvalo, ularning ilmiy-metodik asoslangan holda tashkil etilishiga bog'liq. Shu sababli ta'lim jarayoniga zamonaviy elektron ta'lim resurslari, sun'iy intellekt vositalari, virtual laboratoriyalar va interfaol platformalarni keng joriy etish bilan bir qatorda pedagoglarning raqamli kompetentligini muntazam rivojlantirish zarur. Bu esa, o'z navbatida, ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning zamonaviy kompetensiyalarini shakllantirish hamda xalqaro baholash dasturlarida yuqori natijalarga erishish uchun muhim omil bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. - Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash to'g'risidagi Farmoni.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining Umumiy o'rta ta'limning davlat ta'lim standartlari. - Toshkent, 2023.
4. Abduqodirov A. A. Ta'limni axborotlashtirish va zamonaviy pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Fan va texnologiya, 2021.
5. Ishmuhamedov R., Yo'ldoshev M. Ta'lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Nihol, 2022.
6. To'xtayev B. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari. - Toshkent: O'qituvchi, 2021.
7. Saidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. - Toshkent: Moliya, 2020.
8. Muslimov N. A. Kasbiy ta'lim texnologiyalari. - Toshkent: Fan, 2021.
9. Полат Е. С. Современные педагогические и информационные технологии в системе образования. - Москва: Академия, 2021.
10. Хуторской А. В. Компетентностный подход в современном образовании. - Москва: Просвещение, 2020.

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2026. №7(3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.